XALQ DEPUTATLARI XIVA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 19-mart VII-23-26-12-176-K/26 Xiva tumani

Xiva tumanida “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish hamda obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan Xiva tumani markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlariga chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha 2026-yil uchun tariflar belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-387-sonli qarorining 2-bandi “v”-kichik bandida, Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish hamda mazkur qarorning 8-bandi “a” kichik bandida, 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar) markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilganligi, bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflarni tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan Xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilangan.

Xiva tumani hokimligi tomonidan kiritilgan takliflar atroflicha muhokama qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Xiva tumani Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xiva tumanida hududida 2026-yil uchun “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning miqdorlari 1-ilovaga muvofiq, Xiva tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan Xiva tumani markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlariga chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xiva tumani hokimligining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i B.Xudayberganov hamda tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari-tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i S.Yaqubov bilan birgalikda mazkur qarorni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsinlar.

4. Ushbu qaror “Xiva tongi” gazetasida rasman e’lon qilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Xiva tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi P.Allomov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ESHNIYAZOV MAXMUDBEK MAQSUDOVICH**

Xalq deputatlari Xiva tumani
Kengashining
2026-yil 19-martdagi
VII-23-26-12-176-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Xiva tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalari

T/r	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		Bazaviy stavka ***(O‘RQ-1105 25.12.2025-yil. 9-ilova)***	**Qo‘llanilgan koeffitsiyent** ***(0,2 gacha)***	**2026-yil uchun yig‘im stavkasi**
1.	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	**300 000**	**0,2**	**360 000**
2.	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	**150 000**	**0,2**	**180 000**

Xalq deputatlari Xiva tumani
Kengashining
2026-yil 19-martdagi
VII-23-26-12-176-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Xiva tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan Xiva tumani markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlariga chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar

T/r	Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O‘lchov birligi	Tarif miqdori (so‘m)
1.	Tadbirkorlik subyektlari uchun	Maishiy chiqindilar	**m^3**	**60 000**
2.	Tadbirkorlik subyektlari uchun	Obodonlashtirish	**m^2**	**700**